

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FUQAROLIK HUQUQI TUSHUNCHASI

Isroilov Davronbek Dilshodbek o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasи

o'qituvchisi

Otanazarova Shahzoda Kenja qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va

huquq ta'limi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: O'bekiston Respublikasi Fuqarolik huquqi shaxslarning mulkiy va shaxsiy huquqlarini himoya qilish, jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, qonuniy munosabatlarni tartibga solishdek muhim vazifalarni bajaradi. Fuqarolik huquqining yaxshi ya'ni samarali ishlashi jamiyatning rivojlanishi hamda fuqarolarning huquqlarini ta'minlashiga xizmat qiladi.

Abstract: Civil law of the Republic of Uzbekistan performs important tasks on protection of property and personal rights of citizens, provision of social and economic stability in society, regulation of legal relations. Good, that is, effective functioning of civil rights serves development of society and protection of rights of citizens.

Аннотация: Гражданское право Республики Узбекистан выполняет важные задачи по защите имущественных и личных прав граждан, обеспечению социальной и экономической стабильности в обществе, регулированию правоотношений. Хорошее, то есть эффективное функционирование гражданских прав служит развитию общества и защите прав граждан.

Kalit so'zlar: Fuqaro, huquqiy barqarorlik, mulk huquqi, shartnomalar huquqi, shaxsiy nomus, shaxsiy huquqlar, yuridik xavfsizlik, xalqaro huquq

Key words: Citizen, legal stability, property right, contract law, personal honor,

personal rights, legal security, international law.

Ключевые слова: Гражданин, правовая стабильность, право собственности, договорное право, личная честь, права личности, правовая безопасность, международное право..

Kirish: Fuqarolik huquqi – bu davlat tomonidan fuqarolar va yuridik shaxslar o‘rtasidagi mulkiy, shaxsiy mulkiy shartnomalar va shunga o‘xshash huquqiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi huquq sohasi hisoblanadi.O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi 1996-yilda qabul qilingan bo‘lib, u hozirgi kunda ham mamlakatda fuqarolik huquqi sohasidagi asosiy qonuniy me’yorlarni belgilaydi. Fuqarolik huquqi o‘z ichiga ko‘plab turli huquqiy munosabatlarni o‘z ichiga oladi oladi va ularning eng muhim yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni ko‘rishimiz mumkin: multk huquqi, shartnomalar, meros huquqi, shaxsiy nomus huquqi va boshqa huquqlarni o‘z ichiga oladi. Shu jumladan, Fuqarolik huquqining asosiy tamoyillari ham mavjud. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqi bir necha asosiy tamoyillarga asoslanadi.

1. Erkinlik va tenglik – fuqarolar va yuridik shaxslar o‘z huquqlaridan erkin foydalanishga va boshqalar bilan teng huquqlarga ega bo‘lishlari zarur bo‘ladi. Hech bir shaxs o‘z shaxsiy huquqlarini foydalanishda boshqa shaxslar huquqlarini buzmasligi zarur bo‘ladi.

2. Huquqiy barqarorlik- fuqarolik huquqi sohasidagi munosabatlar davlat tomonidan muntazam ravishda tartibga solinadi. Shu bilan birga, huquqiy nizolarni hal qilish uchun aniq mexanizmlar bor.

3. O‘zgaruvchanlik- fuqarolik huquqining normativ hujjatlari vaqt o‘tishi bilan rivojlanib, o‘sib boradi. Shuningdek zamonaviy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda siyosiy o‘zgarishlar natijasida yangi qonunlar va me’oriy hujjatlar qabul qilinishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi shaxsi bilan davlatning doimiy siyosiy, huquqiy aloqasini belgilab beradi.

Asosiy qism: O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi- shaxs bilan O‘zbekiston Respublikasining doimiy, siyosiy aloqasini belgilab beradi. Bu kabi aloqalar ularning o‘aro huquqlari va burchlarida o‘z aksini topadi. O‘zbekiston Respublikasi

fuqaroligini tasdiqlovchi hujjatlarga ega bo'lgan shaxslar O'zbekiston fuqarosi hisoblanadi.O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bir vaqtning o'zida boshqa mamlakatning fuqarosi bo'lishi mumkin emas. Ya'ni O'zbekiston Respublikasida yagona fuqarolik mavjud.

Fuqarolikka ega bo'ish va uni yo'qotish asoslari hamda tartibi “O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida”gi qonunda belgilab qo'yilgan. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar ham O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi mumkin. Yokida fuqarolik huquqidан mahrum qilinish holatlari ham mavjud. Fuqarolikdan mahrum qilish, asosan, naturalizatsiya qilingan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Masalan, Ispaniya hamda GFR konstitutsiyalarida “Fuqarolikdan mahrum qilish mumkin emas” deb ko'rsatilgan. AQSHda ushbu vaziyatda qonun hujjatlari bilan tartibga solishni ta'kidlashimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham uning tashqarisida ham o'z fuqarolarining huquqini himoya qilishi va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlaydi hamda ularning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qiladi.O'zbekiston Respublikasida fuqarolik huquqi tushunchasi nafaqat qonun hujjatlarimizda,balki Konstitutsiyamizda ham alohida boblarda belgilab qo'yilgan.

Fuqarolik kodeksi- fuqarolik huquqlarining eng muhim va asosiy qoidalarini belgilaydigan kodifikatsiyalashtirilgan normalardan iborat qonun hujjati hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 2 qismdan iborat bo'lib, uning 1-qismi 1995-yil 21-dekabrda, 2-qismi 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan.Faqat ikkala qismi ham bir vaqtda ya'ni yagona holatda 1997-yil 1-martda kuchga kiradi.O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 6 bo'lim, 71 bob va 1199 moddadan iborat. Fuqarolik kodeksining 1-qismida fuqarolik huquqining umumiyligi qoidalari, tamoyillari, fuqarolik huquqiy munosabatlar sub'yektlari, mazmuni va ob'yektlari, vakillik va ishonchnoma, muddatlar va da'vo muddati, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar, majburiyat huquqining umumiyligi qoidalari, shartnomalar to'g'risidagi umumiyligi qoidalari belgilangan bo'lsa,

kodeksning 2-qismida majburiyatlarning alohida turlari hisoblangan fuqarolik huquqiy shartnomalarni, shartnomadan tashqari majburiyatlarni, intellektual multk huquqi ob'yektlari bilan bog'liq munosabatlarni, vorislik huquqini va xalqaro xususiy huquq normalarini fuqarolik huquqiy munosabatlarga tatbiq etilishini tartibga soluvchi qoidalar mustahkamlangan.

Fuqarolik huquqi bir qancha asosiy tamoyillarga tayanadi, ular quyidagilar:

- 1.Shaxs erkinligi va multkchilik huquqi;
- 2.O'zaro erkinlik va tenglik tamoyili;
- 3.Shartnomalar erkinligi;
- 4.Adolatli sud ishlari;
- 5.Hujjatlashtirish va huquqiy tasdiqlash.

Fuqarolik huquqi faqat nazariy emas, balki amaliyotda ham keng qo'llaniladi.

Bularga quyidagilarni keltirish mumkin:

Biznes faoliyati: Yuridik shaxslar va tadbirkorlar shartnomalar tuzish,mulk sotib olish, ijara kelishuvlari tuzish kabi huquqiy amallarni amalga oshiradilar.

Mulkni himoya qilish: Mulkni egallah, qayta ishslash yoki undan foydalanganlikda, muayyan shaxsning huquqlari buzilgan taqdirda sud orqali himoya qilish imkoniyatlari mavjud.

Meros qoidalari: Meros huquqidagi tartiblar, vasiyatnama tuzish va uning qonuniy kuchini tasdiqlash imkoniyatlari amaliyotda keng qo'llaniladi.

Xulosa: Mening fikrimcha, O'zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqi jamiyatda huquqiy munosabatlarni tartibga solishda muhim o'rin egallaydi. Chunki fuqarolik huquqining asosiy tamoyillari, institutlar va amaliy qo'llanilishi bilan shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni adolatli va huquqiy tarzda tartibga solinadi. Hozirgi kunga kelib, O'zbekiston hukumati tomonidan huquqiy tizimni takomillashtirishga doir amalga oshirilgan islohotlar fuqarolik huquqi amaliyotining, samarali ishslashini ta'minlashga xizmat qilib kelmoqda. Shunday qilib, fuqarolik huquqi har bir fuqaroning huquqlarini himoya qilish, jamiyatimizda qonuniy va tartibli munosabatlarni yaratish uchun zarur vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Fuqarolik Huquqi darslik umumiy qism 2014 Topildiyev B. R.

Fuqarolik huquqi darslik İ. Zokirov 2009

Fuqarolik kodeksiga sharx X.R.Raxmonqulov

O.O. Oqyulovtoshkent 2013

Cvill.uz

Asadbek, M., & Davronbek, I. (2023). O'ZBEKISTON-2030 STRATEGIYASINING YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHNING KAFOLATI. Ustozlar uchun, 24(1), 204-207.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi;
3. <https://lex.uz>;
4. <https://arxiv.uz>;
5. hptts://uz.wikipedia.org;